

AMIR TEMURNING GRUZIYA QILGAN YURUSHLARI NIZOMIDDIN SHOMIY VA MUINIDDIN NATANZIY NIGOHIDA

Adxamjon Qosimov

Fargʻona davlat universiteti “Tarix” (yoʻnalishlar va faoliyat turi boʻyicha)

mutaxassisligi 1-kurs 21.01-guruh magistranti

Electron pochta: adxamjonqosimov1994@gmail.com

ANOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Amir Temur yurishlari arafasida Gruziyaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Sohibqiron lashkari tomonidan Gruziyaning zabt etilishi Muiniddin Natanziy va Nizomoddin Shomiy asarlari asosida tatqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, Gurjiston, Zafarnoma, Muntaxab ut-tavorixi Muiniy, Albuz, Tiflis, Xaybarzamin, Turil, Toʻrol, market

ABSTRACT

In this scientific article, the socio-political situation of Georgia on the eve of Amir Temur's campaigns, the invasion of Georgia by Sahibqiron's army is analyzed based on the works of Muiniddin Natanzi and Nizamiddin Shami.

Key words: Amir Temur, Georgia, Zafarnama, Muntakhab ut-tavarihi Muini, Albuz, Tiflis, Khybarzamin, Turil, Toral, Markit

KIRISH.

Jahonda roʻy berayotgan globallashuv jarayonlari milliy davlatchilik tarixini, uning yuksalishi va rivojlanishi yoʻlida xizmat qilgan tarixiy shaxslarning hayot yoʻlini oʻrganishni taqazo etiladi. Oʻzbek davlatchiligi tarixida muhim iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va yengilmas sarkarda Sohibqiron Amir Temur shunday tarixiy shaxslardan biridir. Shuning uchun ham uning tarixi nafaqat yurtimizda keng oʻrganilmoqda, balki jahon olimlarini diqqat va eʼtiborini oʻziga jalb etib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimizda Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid koʻplab ilmiy tatqiqotlar olib borilgan boʻlsa-da, Sohibqironning Gruziyaga qilgan harbiy yurishlari batafsil tatqiq etilmagan. Xususan, Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Abdulahad Muhammadjonovning “Temur va temuriylar saltanati”, Ahmadjon Choriyevning “Sohibqiron Amir Temur hayotidan lavhalar”, Boʻriboy Ahmedovning “Amir Temur haqida hikoyalar”, Erkin Azimovning “Amir Temur saltanati”, Ibrohim Moʻminovning “Amir Temurning Oʻrta Osiyo

tarixida tutgan o‘rni va roli” asari, shuningdek “Amir Temur va uning dunyo tarxida tutgan o‘rni”, “Amir Temur saboqlari”, “Amir Temur ko‘ragon zafar yo‘li” kabi asarlarda ushbu harbiy yurish qayd etib o‘tilgan, lekin yurishning sabablari, g‘alabaga olib kelgan omillar va tarixiy oqibatlari tahlil etilmagan.

Amir Temurning Gruziya yurishlari, Gruziya yurishi davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-Maqdur”, Sharafidin ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlarida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Amir Temurning Gruziyaga yurishi haqida tarixchilar tomonidan turlicha ma‘lumotlar berilgan. Shu asnoda Amir Temur 1386-1403-yillarda Gruziya bir necha marotaba yurishlar olib bordi.

Gruziya to‘g‘risida Muiniddin Natanziy o‘zining “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarida quyidagicha tariflaydi: “Gurjiston ancha kengparvar mamlakat bo‘lib, chunonchi poytaxt Tiflisdan to Abxoz oxirigacha bir oyda bosib o‘tilardi. Uning yerlari Arzinjondan to Albuz tog‘i etagi va Lakzistongacha cho‘zilib ketgan. Bu sarzamin hududida baland tog‘lar, keng vodiylar, katta daryolar, yaxshi o‘tloqlar joylashgan”.¹⁶ Bundan xulosa qilinadiki Gruziya hududi ancha keng bo‘lib, katta daryo va keng vodiylardan iborat.

Amir Temurning besh yillik yurishlari davrida Gruziya qal‘alarini zabt etishga kirishdi. Eng mustahkam qal‘a hisoblangan Turil qal‘asini qamal qilishga astoydil tayyorgarlik ko‘rdi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida mustahkam qal‘a Birtis qal‘asi deb aytiladi. Qal‘a baland tog‘ ustida qurilgan. Bu qal‘aning voliyisi To‘rol ismli harbiy qo‘shin sarkardasi bo‘lib, yuz ellik kishi askarlar uning iznida edi.¹⁷ O‘ttizga yaqin gurjilar ulug‘lari To‘rolni ulug‘lar edi. Bu qal‘aning atrofida baland tog‘lar, o‘nqir-cho‘nqir daralar, o‘tish qiyin bo‘lgan hisobsiz daralar bor edi. Xattoki chodir qurish uchun bir qarich yer topish mushkul edi. Shu sababdan., ba‘zi joylarga toshlar terib va shox-shabba tashlab chodir tikildi.¹⁸

Gurjilarning tasavvurida, butun yer yuzining askarlari kelsa ham, cho‘qqidagi qal‘ani egallash imkonsiz edi. Sohibqiron tomonidan olib borilgan qamal 20 kun davom etsa ham, o‘sha davrda *Xaybarzamin* deb nomlangan qal‘ani fath etishni iloji bo‘lmadi.¹⁹

Nihoyat markit qabilasining jangchichi tog‘lar orasidan yashirin joy borligini topib oldi va sohibqironga xabar berdi. Sohibqiron maxfiy tarzda to‘rt yuz poyali navron yasashga buyruq berdi. Qororng‘u payti jangchilar qal‘aga yuqorila boshladi. Tonggacha 33 kishi qal‘aga chiqib oldi. Bu voqeadan voqib bo‘lgan gurjilar

¹⁶ M. Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O‘zbekiston”, 2011. 177 B.

¹⁷ Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” T. “O‘zbekiston”, 1996. 361 B.

¹⁸ Muiniddin Natanziy. “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O‘zbekiston”, 2011. 177 B.

¹⁹ Muiniddin Natanziy. “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O‘zbekiston”, 2011. 178 B.

sarosimaga tushdi va omonlik so‘radilar. Gurjistonning barcha qal‘alari va tog‘lik hududlari yakson qilindi.

XULOSA

Xulosa shuki, Gruziya davlati hududi keng va atrofi tog‘, daralar bilan o‘rab olingan bo‘lib, bu hududni egallash, boshqa mamlakat hukmdorlariga qiyinchilik tug‘dirgan, lekin Amir Temur egallab bo‘lmasdek ko‘ringan mustahkam qal‘ani bosib olish choralarini ko‘rdi va buning uddasidan chiqdi. Gruziya mamlakatini kofirlardan tozalab, bu hududni islom diniga chorladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Muiniddin Natanziy. “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” - T.: “O‘zbekiston”, 2011 – B. 254
2. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” - T.: “O‘zbekiston”, 1996 - B. 522
3. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” - T.: “Sharq”, 1997- B. 374